

# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

## TRANSPORT TO'G'RISIDA

Qonunchilik palatasi tomonidan 2021-yil 3-martda qabul qilingan  
Senat tomonidan 2021-yil 29-mayda ma'qullangan

### 1-bob. Umumiy qoidalar

#### 1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi

Ushbu Qonunning maqsadi transport sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

#### 2-modda. Ushbu Qonunning qo'llanilish sohasi

Ushbu Qonun transportga oid faoliyatni tijorat asosida amalga oshirish chog'ida yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga soladi.

Ushbu Qonunning amal qilishi:

quvur transporti faoliyati va elektr uzatish liniyalari orqali elektr energiyasining olib o'tilishi;

transportga oid bo'lmagan ishlarni bajarish uchun mo'ljallangan maxsus transport vositalari faoliyati;

idoraviy yo'lovchi tashish transportining, shuningdek beg'araz asosda tashishlarni amalga oshiradigan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning faoliyati;

harbiy, harbiy-yordamchi, chegarani qo'riqlaydigan kemalarning, shuningdek O'zbekiston Respublikasi hududi orqali maxsus yuklarni va harbiy tarkiblarni tranzit tashishlarni amalga oshirish faoliyati;

eksperimental va davlat aviatsiyasining faoliyati;

xususiy mulk huquqi asosida yoki boshqa qonuniy asoslarga ko'ra, tashishlarni o'zlariga tegishli bo'lgan transport vositalaridan foydalangan holda beg'araz asosda va shaxsiy ehtiyojlarini qanoatlantirish uchun amalga oshiradigan jismoniy shaxslarning faoliyati bilan bog'liq munosabatlarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

#### 3-modda. Transport to'g'risidagi qonunchilik

Transport to'g'risidagi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining transport to'g'risidagi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

#### 4-modda. Asosiy tushunchalar

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

**aralash tashish** — yo'lovchilarni, bagajni, yuk bagajini, yuklarni, pochta va kuryerlik jo'natmalarini butun harakatlanish yo'li uchun rasmiylashtirilgan yagona tashish hujjati bo'yicha har xil turdagi transportda tashish;

**aralash tashishlar operatori** — tashishni tashkil etuvchi hamda tashish uchun o'zi jalb qilgan barcha tashuvchilar va uchinchi shaxslar uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oluvchi yuridik shaxs;

**mijoz** — tashuvchi yoki aralash tashishlar operatori bilan tuzilgan shartnoma asosida transport xizmatlaridan foydalanadigan jismoniy yoki yuridik shaxs (yo'lovchi, yuk jo'natuvchi, yuk oluvchi, fraxtlovchi);

**tashish** — yo'lovchilarni, bagajni, yuk bagajini, yuklarni, pochta va kuryerlik jo'natmalarini jo'natish punktidan yetkazish punktiga tashish;

**tashishlar xavfsizligi** — texnogen (texnik va texnologik) xususiyatga ega tahdidlardan transport vositasi harakatlanish jarayonining hamda transport vositasining o'zining

himoyalanganlik holatini ta'minlash bo'lib, bunda tashishlar xavfsizligiga oid qoidabuzarliklar va ularning fuqarolar hayotiga yoki sog'lig'iga, jismoniy yoki yuridik shaxslarning mol-mulkiga, atrof-muhitga zarar yetkazilishiga sabab bo'ladigan oqibatlari yuzaga kelishining yo'l qo'yilmaydigan xavfi mavjud bo'lmaydi;

**tashish hujjati** — yo'lovchilarni, bagajni, yuk bagajini, yuklarni, pochta va kuryerlik jo'natmalarini tashish shartnomasi tuzilganligini tasdiqlaydigan, chipta, bagaj kvitansiyasi, tovar-transport yuk xati, elektron axborot tashuvchi karta yoki boshqa axborot tashuvchi tarzidagi hujjat;

**tashuvchi** — mulk huquqi asosida yoki boshqa qonuniy asoslarda transport vositasiga ega bo'lgan, yo'lovchilarni, bagajni, yuk bagajini, yuklarni, pochta va kuryerlik jo'natmalarini tashish bo'yicha tijorat asosida xizmatlar ko'rsatadigan, shuningdek tashish uchun tegishli litsenziyaga, sertifikatga yoxud ruxsat etish xususiyatiga ega hujjati bo'lgan yuridik yoki jismoniy shaxs;

**tranzit transport yo'lagi** — transport vositalarining harakatlanish yo'nalishi bo'lib, unda tranzit yuklarni tashishni amalga oshirish uchun tranzit transport yo'lagining pasportida ko'rsatilgan texnik, texnologik va tashkiliy shart-sharoitlar yaratiladi hamda bunday yuklar va transport vositalariga nisbatan bojxona operatsiyalarini bajarishning soddalashtirilgan tartibi qo'llaniladi;

**transport** — qatnov yo'llarining, transport vositalarining, qatnov yo'llaridagi texnik qurilmalar va inshootlarning yo'lovchilarni, bagajni, yuk bagajini, yuklarni, pochta va kuryerlik jo'natmalarini tashish jarayonini ta'minlaydigan barcha turlari yig'indisi;

**transport vositalari** — yo'lovchilarni, bagajni, yuk bagajini, yuklarni, pochta va kuryerlik jo'natmalarini tashish uchun mo'ljallangan qurilmalar;

**transport infratuzilmasi obyektlari** — yo'lovchilarga, yuk jo'natuvchilarga, yuk oluvchilarga, tashuvchilarga va tashish jarayonining boshqa ishtirokchilariga xizmat ko'rsatish, shuningdek transport vositalarining ishlashini ta'minlash uchun mo'ljallangan inshootlar, ishlab chiqarish-texnologik majmualar;

**transport logistikasi** — yo'lovchilar, bagaj, yuk bagaji, yuklar, pochta va kuryerlik jo'natmalarining olib o'tilishi va tashilishini tashkil qilish bilan bog'liq vazifalarning kompleks va o'zaro bog'liq hal etilishi;

**transport-logistika markazi** — transport infratuzilmasi obyekti, u tashish bilan turdosh bo'lgan tayyorgarlik va taqsimlash xizmatlarini, shu jumladan yuklarni to'plash, saqlash, ularga ishlov berish va tarqatish xizmatlarini hamda yuk va transport vositalari bilan boshqa operatsiyalarni bajarish uchun mo'ljallangan inshootlar joylashgan maxsus ajratilgan maydonni o'z ichiga oladi;

**transport majmui** — transport tashkilotlari, tashuvchilar, transport infratuzilmasi obyektlari, transport vositalari, kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, shuningdek transport sohasi xodimlariga ijtimoiy-maishiy hamda madaniy xizmat ko'rsatish sohasidagi tashkilotlar majmui;

**transport tashkiloti** — transportga oid faoliyatni amalga oshiradigan yuridik shaxs;

**transportga oid faoliyat** — yo'lovchilarni, bagajni, yuk bagajini, yuklarni, pochta va kuryerlik jo'natmalarini avtomobil, temir yo'l, havo, suv transportida yoki ushbu transport turlari uyg'unligida tashish hamda ularga xizmat ko'rsatish bo'yicha tashkiliy va texnologik operatsiyalarni hamda shartnoma asosida yoki boshqa qonuniy asoslarda bajariladigan xizmatlar bilan bog'liq faoliyat;

**transport xavfsizligi** — transport majmuining qonunga xilof aralashuvdan himoyalanganlik holati hamda uning odatdagi rejimda va favqulodda vaziyatlar hollarida barqaror ishlashining ta'minlanganligi;

**xalqaro tashish** — yo'lovchilarni, bagajni, yuk bagajini, yuklarni, pochta va kuryerlik jo'natmalarini har qanday turdagi transport vositasida ikki yoki undan ortiq davlat hududlari bo'ylab amalga oshiriladigan tashish, shuningdek yuksiz transport vositasining ikki yoki undan ortiq davlat hududlari bo'ylab o'tishi;

**yagona tovar-transport yuk xati** — tovar-moddiy qimmatliklarni hisobdan chiqarish, ularni olib o'tish yo'lida hisobini yuritish, kirim qilish, omborxonada operatsiyalarini va buxgalteriya hisobini yuritish, shuningdek yukni tashish uchun hisob-kitoblar qilish hamda bajarilgan ishlarni hisobga

olish uchun mo'ljallangan, barcha aralash tashish ishtirokchilari uchun yagona bo'lgan tashish hujjati.

### **5-modda. Transportga oid faoliyatning asosiy prinsiplari**

Transportga oid faoliyatning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

qonuniylik;

xavfsizlik;

ekologik tozalik;

transport xizmatlaridan foydalana olish;

ochiqlik va shaffoflik.

### **6-modda. O'zbekiston Respublikasining transport tizimi**

Avtomobil, havo, temir yo'l, suv, elektr transporti, metropoliten va transport infratuzilmasi obyektlari O'zbekiston Respublikasining yagona transport tizimini (bundan buyon matnda transport tizimi deb yuritiladi) tashkil etadi.

## **2-bob. Transport sohasini davlat tomonidan tartibga solish**

### **7-modda. Transport sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari**

Transport sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

transport sohasida davlat dasturlarini hamda boshqa dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

transport tizimini mamlakat iqtisodiyotining strategik sektori sifatida rivojlantirish;

transport xizmatlarining raqobatbardoshligini, ulardan foydalana olishni, ularning samaradorligi va sifatini, xavfsizligi va ekologik tozaligini oshirish;

transport sohasi boshqaruvini takomillashtirish va har xil transport turlarining o'zaro bog'liq tarzda ishlashini ta'minlash, shuningdek samarali tarif siyosatini yuritish;

davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish;

ilg'or innovatsion va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini rivojlantirish hamda takomillashtirish;

xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va transport majmuini xalqaro transport tizimiga uyg'unlashtirish.

### **8-modda. Transport sohasini davlat tomonidan tartibga solish**

Transport sohasini davlat tomonidan tartibga solish litsenziyalash, sertifikatlashtirish, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillarini qo'llash, texnik jihatdan tartibga solish, ilmiy-texnik siyosatni amalga oshirish, soliq solish, tarif siyosatini, shu jumladan ijtimoiy ahamiyatga ega tashishlar uchun tarif siyosatini olib borish, transport to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan davlat nazoratini ta'minlash, kadrlar siyosatini olib borish, shuningdek qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa tartibga solish usullarini qo'llash yo'li bilan amalga oshiriladi.

Davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari transport tashkilotlarining xo'jalik faoliyatiga aralashishga hamda ushbu tashkilotlarning ishlayotgan xodimlarini boshqa ishlarga jalb etishga haqli emas, bundan tabiiy va texnogen xususiyatga ega favqulodda vaziyatlar yuzaga kelgan, favqulodda holat joriy etilgan hollar mustasno.

### **9-modda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining transport sohasidagi vakolatlari**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

transport sohasida davlat siyosati amalga oshirilishini ta'minlaydi;

davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining, mahalliy davlat hokimiyati organlarining transport sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtiradi;

transport tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilaydi, transport sohasida davlat dasturlari ishlab chiqilishi va amalga oshirilishini tashkil etadi;

transport sohasidagi ilmiy-texnikaviy va investitsiyaviy faoliyatni tashkil etadi;

transport infratuzilmasi shakllantirilishini va uning samarali ishlashini ta'minlaydi;

transport sohasidagi litsenziyalash, sertifikatlashtirish, ruxsat etish va xabardor qilish tartib-taomillaridan o'tish tartibini belgilaydi;

transport infratuzilmasi obyektlari va transport vositalari toifalari sonini hamda ularni toifalash mezonlarini belgilaydi;

tranzit transport yo'laklari ro'yxatini tasdiqlaydi;

transport sohasida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tartibini belgilaydi;

transport sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish choralari ko'radi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

### **10-modda. O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligining transport sohasidagi vakolatlari**

O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi transport sohasidagi maxsus vakolatli davlat boshqaruvi organidir (bundan buyon matnda maxsus vakolatli davlat organi deb yuritiladi).

Maxsus vakolatli davlat organi:

transport sohasida davlat siyosatini amalga oshiradi;

transport sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni, konsepsiyalar hamda strategiyalarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

o'z vakolatlari doirasida transport sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqadi;

transportda xavfsizlikni ta'minlashga doir tadbirlarni ishlab chiqadi va ularning amalga oshirilishini tashkil etadi;

transport sohasida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini tashkil etadi, shu jumladan xorijda tashkil etadi;

zamonaviy boshqaruv uslublariga asoslangan yagona uyg'unlashgan transport tizimini yaratish bo'yicha choralar ko'radi;

zamonaviy innovatsion va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish yo'li bilan transport tizimini raqamlashtirishga doir choralar ko'radi;

litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillarini, shuningdek sertifikatlashtirishni qonunchilikka muvofiq amalga oshiradi;

transport sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi.

Maxsus vakolatli davlat organi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

### **11-modda. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining transport sohasidagi vakolatlari**

Mahalliy davlat hokimiyati organlari o'z vakolatlari doirasida:

transport sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini amalga oshirishda ishtirok etadi;

transport sohasidagi hududiy dasturlarni ishlab chiqadi va ularning amalga oshirilishini ta'minlaydi;

transport tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini shakllantirishda ishtirok etadi;

transport tizimini rivojlantirishga va zamonaviy transport infratuzilmasini yaratishga ko'maklashadi;

transport xizmatlari bozorini shakllantirish va rivojlantirishga, transport majmuining barcha ishtirokchilari uchun teng sharoitlar yaratishga, shuningdek transport tizimining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishga ko'maklashadi;

shahar yo'lovchi transportidan foydalanish chog'ida fuqarolarning alohida toifalari uchun imtiyozli tariflar joriy etish choralarini ko'radi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

### **12-modda. Transport sohasidagi davlat nazorati organlari**

Maxsus vakolatli davlat organi, uning hududiy bo'linmalari, tasarrufidagi tashkilotlar transport sohasidagi davlat nazorati organlaridir.

Transport sohasidagi davlat nazorati organlari:

milliy va chet el transport tashkilotlari tomonidan yo'lovchilarni, bagajni, yuk bagajini, yuklarni, pochta va kuryerlik jo'natmalarini tashish chog'ida transport to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishining ta'minlanishi;

kemachilik xavfsizligi, kemalardan ularning belgilangan maqsadiga muvofiq foydalanilishi;

havo kemalari parvozlari xavfsizligi qonunchilikka muvofiq ta'minlanishi;

temir yo'l transportida yuklarni va yo'lovchilarni tashish xavfsizligi;

fuqaro aviatsiyasi va eksperimental havo kemalaridagi halokatlar hamda baxtsiz hodisalar, shuningdek temir yo'l va suv transportidagi avariya hamda halokatlar bo'yicha tekshiruvlar tashkil etilishi va o'tkazilishi;

yo'lovchilarni, bagajni, yuk bagajini va yuklarni tashish qoidalariga rioya etilishi, yo'lovchi yo'nalishlari bo'yicha transport vositalarining harakatlanishi, harakatlanishning belgilangan jadvallari va oraliq masofalariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi.

Transport sohasidagi davlat nazorati organlari qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

### **13-modda. Transport sohasidagi litsenziyalash va ruxsat etish tartib-taomillari**

Transport sohasidagi litsenziyalash va ruxsat etish tartib-taomillari transport xizmatlari iste'molchilarining manfaatlarini himoya qilish, transportda xavfsizlikni ta'minlash, ekologik, sanitariya-epidemiologik va boshqa talablarga rioya etish maqsadida amalga oshiriladi.

Avtomobil transportida yo'lovchilarni shaharda, shahar ichida, shahar atrofida, shaharlararo, xalqaro tashishlar hamda yuklarni xalqaro tashishlar, yo'lovchilarni va yuklarni temir yo'l transportida tashishlar transport sohasidagi litsenziyalanadigan faoliyat turlari jumlasiga kiradi.

Transport sohasidagi ruxsat etish tartib-taomillarining turlari qonunda belgilangan tartibda aniqlanadi.

Transport sohasidagi litsenziyalash va ruxsat etish tartib-taomillari qonunda belgilangan tartibda maxsus vakolatli davlat organi tomonidan amalga oshiriladi.

### **14-modda. Transport vositalarini sertifikatlashtirish va ro'yxatdan o'tkazish**

Transport vositalari muvofiqlik yoki transport vositasi turini ma'qullash sertifikatiga ega bo'lishi va ro'yxatdan o'tkazilishi kerak.

Xavfsizlik talablariga javob bermaydigan transport vositalarini O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish, O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarish, sotish (realizatsiya qilish) yoki ulardan foydalanish taqiqlanadi.

### **15-modda. Transport tariflari**

Yo'lovchilarni, bagajni, yuk bagajini, yuklarni, pochta va kuryerlik jo'natmalarini tashish, shuningdek tashish bilan bog'liq xizmatlar erkin va tartibga solinadigan tariflar bo'yicha amalga oshiriladi.

Ijtimoiy siyosatni amalga oshirish yoki transport sohasida tabiiy monopoliya subyektlari faoliyatini tartibga solish maqsadida davlat tomonidan transport xizmatlarining ayrim turlariga nisbatan tariflarning cheklangan miqdorlari belgilanadi.

Davlat tomonidan tariflarning cheklangan miqdorini belgilash hamda yo'lovchilarga va fuqarolarning alohida toifalariga imtiyozlar berish natijasida transport tashkilotlari ko'rgan